



JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

Guldayev Lochinbek Kelsinboyevich

*Qo'qon universiteti Andijon filiali Pedagogika, psixologiya va jismoniy
madaniyat kafedrası o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash yoritilgan. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar, raqamli platformalar va interfaol metodlardan foydalanishning jismoniy rivojlanish, sport motivatsiyasi hamda ta'lim sifati oshishiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv va qiyosiy usullardan foydalanilgan. Olingan natijalar jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida innovatsion yondashuvlar samaradorligini isbotlaydi.

Kalit so'zlar: pedagogik jarayon, raqamli ta'lim, sog'lom turmush tarsi, jismoniy tarbiya, sport, innovatsion texnologiyalar.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida sport va jismoniy tarbiyani rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'nan barkamol etib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bois mazkur tadqiqot innovatsion yondashuvlarning ilmiy asoslarini o'rganishga qaratilgan.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi, funksional tayyorgarligi va sport faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirishning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlashdan iborat.



Shuningdek, tadqiqot doirasida an'anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning jismoniy tarbiya jarayonidagi o'rni va ahamiyatini qiyosiy tahlil qilish ham ko'zda tutilgan.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- jismoniy tarbiya va sport ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalarning mazmun-mohiyatini ilmiy manbalar asosida tahlil qilish;
- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida interfaol metodlar va raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;
- innovatsion yondashuvlarning o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi va harakat faolligiga ta'sirini o'rganish;
- sport mashg'ulotlarida motivatsiyani oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik omillarni aniqlash;
- tadqiqot natijalari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida jismoniy tarbiya va sport sohasiga xos bo'lgan zamonaviy ilmiy-pedagogik metodlar majmuasidan foydalanildi. Jumladan:

- Ilmiy-nazariy tahlil metodi - jismoniy tarbiya va sport pedagogikasiga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda soha bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar o'rganildi;
- Pedagogik kuzatuv metodi - jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'quvchilarning faolligi, mashqlarga munosabati va harakat faoliyati dinamikasi kuzatildi; Taqqoslash metodi - an'anaviy va innovatsion metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar samaradorligi qiyosiy tahlil qilindi; Umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari - olingan nazariy va amaliy ma'lumotlar tahlil qilinib, xulosalar shakllantirildi;
- Pedagogik tajriba-sinov metodi - innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali ularning samaradorligi baholandi.

Mazkur metodlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligini va natijalarning ishonchliligini ta'minlashga xizmat qildi.



Tadqiqot natijalari va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, interfaol mashqlar, video-tahlil, raqamli dasturlar va individual yondashuv asosida tashkil etilgan darslar harakat faoliyatining faollashuviga olib keldi.

Kuzatuvlar davomida innovatsion metodlar asosida mashg'ulot olib borilgan guruhlarda:

- jismoniy mashqlarni bajarish sifati yaxshilangani;
- mashg'ulot davomida charchash darajasi kamaygani;
- sport faoliyatiga nisbatan ijobiy motivatsiya shakllangani aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida innovatsion yondashuvlar o'quvchilarda mustaqil mashq qilish ko'nikmalarini rivojlantirib, o'z jismoniy holatini nazorat qilish madaniyatini shakllantirishga xizmat qilishi ma'lum bo'ldi. Bu esa sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar shuni tasdiqladiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sifatini oshirish bilan birga, sport ta'limining samaradorligini ta'minlaydi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi: jismoniy tarbiya va sport tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi hamda o'quvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsion yondashuvlar sport mashg'ulotlarida motivatsiyani kuchaytirib, harakat faolligini oshiradi va jismoniy tayyorgarlik darajasining yuksalishiga xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali jismoniy tarbiya darslarini ilmiy asoslangan, qiziqarli va samarali tashkil etish imkoniyati yaratiladi.



Xulosa sifatida aytish mumkinki, jismoniy tarbiya va sport ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish sog'lom avlodni tarbiyalash, sport salohiyatini oshirish hamda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent, 2008.
2. Abdullayev A.A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. - Toshkent, 2019.
3. Xo'jayev R.X. Sport pedagogikasi asoslari. - Samarqand, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni.